Ergashev G'iyosjon Jo'rayevich (O'zbekiston xalqaro Islomshunoslik akademiyasi dotsenti v.b.),
Maksudova Aziza Ikramdjanovna (Toshkent Kimyo-texnologiya instituti assistenti),
Qirg'izov Furqatjon Muqimjon o'g'li (O'zbekiston xalqaro Islomshunoslik akademiyasi 1-kurs magistranti)

TASHKILOT VA KORXONALARDA AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA KERIO CONTROLNING AHAMIYATI VA VAZIFALARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada zamonaviy tashkilot va korxonalarda axborot xavfsizligini ta'minlash masalalari hamda Kerio Control tizimining integratsiyalashgan xavfsizlik yechimi sifatidagi o'rni o'rganilgan. Tadqiqotda tarmoq xavfsizligi, firewall, VPN, foydalanuvchi autentifikatsiyasi, trafik monitoringi va kontent filtrlash kabi asosiy funksiyalar orqali korporativ infratuzilmani himoya qilish imkoniyatlari tahlil qilingan.*

Kalit so'z: *Kerio Control, axborot xavfsizligi, kiberxavfsizlik, integratsiyalashgan boshqaruv, tarmoq xavfsizligi, firewall, VPN, autentifikatsiya, trafik monitoringi, kontent filtrlash.*

ЗНАЧЕНИЕ И ФУНКЦИИ KERIO CONTROL В ОБЕСПЕЧЕНИИ ИНФОРМАЦИОННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В ОРГАНИЗАЦИЯХ И ПРЕДПРИЯТИЯХ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются вопросы обеспечения информационной безопасности в современных организациях и предприятиях, а также роль системы Kerio Control как интегрированного решения в области сетевой безопасности. В исследовании анализируются возможности защиты корпоративной инфраструктуры посредством основных функций, таких как сетевая безопасность, межсетевой экран (firewall), VPN, аутентификация пользователей, мониторинг трафика и фильтрация контента.*

Ключевые слова: *Kerio Control, информационная безопасность, кибербезопасность, интегрированное управление, сетевая безопасность, межсетевой экран (firewall), VPN, аутентификация, мониторинг трафика, фильтрация контента.*

THE IMPORTANCE AND FUNCTIONS OF KERIO CONTROL IN ENSURING INFORMATION SECURITY IN ORGANIZATIONS AND ENTERPRISES

Annotation. *This article examines issues of information security in modern organizations and enterprises, as well as the role of Kerio Control as an integrated network security solution. The study analyzes the capabilities of protecting corporate infrastructure through key functions such as network security, firewall, VPN, user authentication, traffic monitoring, and content filtering.*

Keywords: *Kerio Control, information security, cybersecurity, integrated management, network security, firewall, VPN, authentication, traffic monitoring, content filtering.*

Kirish. Raqamli texnologiyalar va korporativ infratuzilmaning kengayishi zamonaviy tashkilotlar faoliyatida axborot resurslarini boshqarish va himoya qilishni muhim vazifa sifatida belgilaydi. Axborotning maxfiyligi, yaxlitligi va mavjudligini ta'minlash nafaqat tashkilotning ichki jarayonlarini barqaror ishlashini kafolatlaydi, balki biznes ma'lumotlarining noqonuniy tarqalishi, kiberhujumlar va boshqa tahdidlardan himoya qilishni ham ta'minlaydi.

Zamonaviy korxonalar turli xavfsizlik vositalarini mustaqil ishlatadi: antivirus dasturlari, firewall, foydalanuvchi autentifikatsiyasi tizimlari, trafik monitoringi va kontent filtrlash. Biroq alohida ishlovchi vositalar xavfsizlik siyosatini markazlashmagan holda ta'minlaydi, natijada tahdidlarni aniqlash tezligi pasayadi va tarmoq faoliyati bo'yicha nazorat yetarli darajada amalga oshmaydi. Shu sababli axborot xavfsizligini integratsiyalashgan boshqaruv tizimi asosida tashkil etish zarurati ortmoqda [1].

Kerio Control tizimi kichik va o'rta tashkilotlar uchun mo'ljallangan kompleks tarmoq xavfsizligi yechimidir. U firewall, VPN, foydalanuvchi autentifikatsiyasi, trafik monitoringi va kontent filtrlash funksiyalarini yagona boshqaruv panelida birlashtiradi. Bu esa tashkilotlarda markazlashgan xavfsizlik boshqaruvini amalga oshirish, tahdidlarni tezkor aniqlash va axborot resurslarini samarali boshqarishni ta'minlaydi [2].

Ushbu maqolada Kerio Controlning tashkilot va korxonalarda axborot xavfsizligini ta'minlashdagi ahamiyati, tizim vazifalari va amaliy qo'llanilishi batafsil yoritilgan. Mazkur tadqiqot xavfsizlik boshqaruvi, tarmoq himoyasi, foydalanuvchi nazorati va masofaviy ulanishlarni himoyalash orqali tashkilot infratuzilmasining barqarorligini oshirishga qaratilgan.

Adabiyotlar tahlili. So'nggi yillarda axborot xavfsizligini ta'minlash masalalari ilmiy va amaliy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Mazkur sohada olib borilgan ishlarda korporativ

tarmoqlarni himoyalash, ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash hamda foydalanuvchi faoliyatini nazorat qilish mexanizmlariga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, tarmoq xavfsizligini ta'minlashda firewall texnologiyalari, virtual xususiy tarmoqlar (VPN), kirishni boshqarish tizimlari va trafikni monitoring qilish vositalarining samaradorligi turli yondashuvlar asosida keng tahlil qilingan [3].

Ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, axborot xavfsizligini ta'minlashda alohida funksional vositalardan foydalanish ma'lum darajada samarali bo'lsada, ularning mustaqil ishlashi tizimli yondashuvni cheklaydi [4]. Natijada xavfsizlik siyosatini yagona muhitda boshqarish imkoniyati pasayadi, tahdidlarni aniqlash va ularga javob berish jarayonlari esa murakkablashadi. Shu sababli ko'plab tadqiqotlarda xavfsizlik vositalarini integratsiyalashgan platforma asosida birlashtirish zarurligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Biroq mavjud tadqiqotlarning aksariyatida yirik korporativ infratuzilmalar uchun mo'ljallangan murakkab va resurs talab qiluvchi xavfsizlik yechimlari ustuvor o'rganilgan. Kichik va o'rta biznes subyektlari uchun moslashuvchan, iqtisodiy jihatdan samarali hamda boshqaruvi soddalashtirilgan kompleks tizimlar yetarli darajada chuqur tahlil qilinmagan. Xususan, Kerio Control kabi integratsiyalashgan xavfsizlik platformalarining funksional imkoniyatlari, amaliy qo'llanishi va samaradorligi ilmiy nuqtai nazardan yetarlicha yoritilmagan.

Masalaning qo'yilishi. Zamonaviy tashkilot va korxonalarda axborot xavfsizligini ta'minlash bugungi kunda strategik vazifa hisoblanadi. Korporativ tarmoqlarda katta hajmdagi ma'lumotlar almashinuvi, internetga doimiy ulanish va masofaviy ishlash tizimlarining joriy etilishi kiberxavflarning ortishiga sabab bo'lmoqda. Shu bilan birga, alohida ishlovchi xavfsizlik vositalari (firewall, antivirus, autentifikatsiya tizimlari, monitoring vositalari) tashkilot xavfsizligini markazlashmagan tarzda ta'minlaydi. Natijada quyidagi muammolar yuzaga keladi:

Tahdidlarni aniqlash kechikishi – tarmoqdagi xavfli harakatlar yagona tizim orqali kuzatilmagani sababli xavf darajasi oshadi.

Resurslardan samarali foydalanmaslik – turli vositalar mustaqil ishlagani uchun adminstratorlar ortiqcha yuklanadi.

Xavfsizlik siyosatining uyg'un emasligi – alohida xavfsizlik komponentlari bir-biri bilan integratsiyalashmagan, shuning uchun siyosat markazlashmagan.

Insidentlarga tezkor javob berish imkoniyati cheklangan – tahdid aniqlanganda yagona boshqaruv muhitining yo'qligi tufayli javob va choralar kechikadi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish va tashkilot infratuzilmasini barqaror himoyalash uchun integratsiyalashgan xavfsizlik boshqaruv tizimini joriy etish zarurati mavjud. Shu nuqtai nazardan masala shunday qo'yiladi:

Masala. Tashkilot va korxonalarda axborot xavfsizligini samarali ta'minlash, tahdidlarni real vaqt rejimida aniqlash va xavfsizlik boshqaruvini markazlashgan tarzda amalga oshirish. Kerio Control tizimi misolida integratsiyalashgan xavfsizlik boshqaruvining ahamiyati va amaliy vazifalarini aniqlash.

Ushbu masala doirasida maqolada quyidagi savollarga javob qidiriladi:

- Kerio Control orqali xavfsizlik boshqaruvi qanday markazlashadi?
- Tarmoq, foydalanuvchi va masofaviy ulanishlar xavfsizligini ta'minlashda tizimning asosiy vazifalari qanday?
- Integratsiyalashgan xavfsizlik boshqaruvi tashkilot infratuzilmasining barqarorligini qanday oshiradi?

Masalani yechish usuli. Tashkilot va korxonalarda axborot xavfsizligini samarali ta'minlash masalasini hal qilish uchun integratsiyalashgan xavfsizlik boshqaruv tizimi – Kerio Control tizimi asosida yondashuv ishlab chiqilgan. Ushbu yondashuv bir nechta bosqichlarni o'z ichiga oladi:

Tarmoq xavfsizligini tashkil etish: Kerio Control firewall funksiyasi orqali ichki tarmoqni tashqi tahdidlardan himoya qiladi. Kiruvchi va chiquvchi trafik xavfsizlik qoidalari asosida tekshiriladi, port va protokollarga ruxsat darajalari belgilanadi. Bu tarmoq chegarasini himoya qilish va ruxsatsiz ulanishlarning oldini olish imkonini beradi.

Foydalanuvchilarni identifikatsiya va autentifikatsiya qilish. Kerio Control foydalanuvchilarni Active Directory yoki lokal foydalanuvchi bazasi orqali boshqaradi. Har bir xodim yoki qurilma aniq identifikatsiya qilinadi va rolga asoslangan ruxsatlar belgilanadi. Shu orqali ichki xavfsizlikni kuchaytirish va kirish jarayonini nazorat qilish ta'minlanadi.


Masofaviy ulanishlar xavfsizligini ta'minlash (VPN). Tashkilot filiallari yoki masofaviy ishchilar xavfsiz VPN ulanish orqali korporativ resurslarga bog'lanadi. VPN tunnel shifrlangan kanalni ta'minlaydi

va tashqi tahdidlardan himoya qiladi. Bu yondashuv geografik jihatdan tarqalgan infratuzilmani xavfsiz boshqarish imkonini beradi.

Tarmoq monitoringi va trafik tahlili. Kerio Control administratorga markazlashgan boshqaruv paneli orqali tarmoq faoliyatini real vaqt rejimida kuzatish imkonini beradi. Shubhali harakatlar va xatoliklar aniqlanadi, trafik yuklanishi tahlil qilinadi va avtomatik hisobotlar shakllantiriladi.

Kontent filtrlash va zararli saytlarni bloklash: Internetdan foydalanish monitoringi va kontent filtrlash yordamida nomaqbul saytlar bloklanadi. Bu korxona ma'lumotlarini himoya qilish bilan birga, xodimlarning ish unumdorligini oshirishga yordam beradi.

Xavfsizlik siyosatini markazlashgan boshqaruv: Kerio Control orqali tashkilot uchun yagona xavfsizlik siyosati joriy qilinadi. Bunda internetdan ilovalar nazorati va tarmoq kirish qoidalari avtomatik tarzda barcha foydalanuvchilarga qo'llanadi. Markazlashgan boshqaruv inson omili sababli yuzaga keladigan xatolarni kamaytiradi.



1-rasm. Integratsiyalashgan xavfsizlik boshqaruvining asosiy komponentlari.

Masalani yechishda yondashuv riskga asoslangan boshqaruv printsipiga tayanilgan. Har bir xavf va tahdid oldindan baholanishi, zaifliklar aniqlanishi va xavfsizlik choralarini tanlash orqali samarali himoya tashkil qilinadi. Shuningdek, markazlashgan boshqaruv tizimi yordamida administrator yuklamasi kamayadi va tahdidlarga tezkor javob berish imkoniyati ortadi.

Kerio control tizimining axborot xavfsizligini ta'minlashdagi ahamiyati va vazifalari: Zamonaviy tashkilot va korxonalarda axborot xavfsizligi tizimlarini samarali tashkil etish tarmoq infratuzilmasining barqarorligi, ma'lumotlar maxfiyligi hamda xizmatlarning uzluksiz ishlashini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Axborot resurslarining internet orqali keng almashinuvi kiberhujumlar, zararli dasturlar, ruxsatsiz kirish va ma'lumotlar sizib chiqishi xavfini oshirmoqda. Shu sababli integratsiyalashgan xavfsizlik boshqaruvi tizimlaridan foydalanish dolzarb hisoblanadi.

Kerio Control tizimi tashkilotlarda tarmoq xavfsizligini kompleks tarzda boshqarish imkonini beruvchi dasturiy yechim hisoblanadi. Ushbu tizim bir nechta xavfsizlik mexanizmlarini yagona platformada birlashtirib, administratorga markazlashgan nazoratni amalga oshirish imkonini yaratadi.

Firewall orqali tarmoq himoyasi. Kerio Controlning asosiy vazifalaridan biri — tarmoq chegarasini himoya qilishdir. Firewall mexanizmi orqali kiruvchi va chiquvchi trafik nazorat qilinadi, ruxsat etilgan va taqiqlangan ulanishlar aniqlanadi.

Xulosa. Tashkilot va korxonalarda axborot xavfsizligini ta'minlash zamonaviy raqamli infratuzilmaning muhim talablaridan biri hisoblanadi. Axborot resurslarining ortishi va tarmoq texnologiyalarining ri-

vojlanishi bilan bir qatorda kiberxavflar ham ortib bormoqda. Shu sababli xavfsizlikni alohida vositalar orqali emas, balki integratsiyalashgan boshqaruv tizimi asosida tashkil etish zarur hisoblanadi. Kerio Control tizimi firewall, VPN, foydalanuvchi autentifikatsiyasi, trafik monitoringi va kontent filtrlash funksiyalarini yagona platformada birlashtirib, tashkilotlarda markazlashgan axborot xavfsizligi boshqaruvini ta'minlaydi. Ushbu tizim tarmoq infratuzilmasini tashqi va ichki tahdidlardan himoya qilish, ruxsatsiz kirishlarni cheklash hamda xavfsizlik siyosatini samarali amalga oshirish imkonini beradi.

Natijada Kerio Controldan foydalanish tashkilotlarda axborot xavfsizligi darajasini oshiradi, administrator ishini soddalashtiradi va korporativ ma'lumotlarning maxfiyligi, yaxlitligi hamda himoyasini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). G.A.Kukharev Biometric systems. Methods and tools for identifying a person's personality. SPb.: Polytechnic, 2001, p. 240.

(2). Burge M. and Burger W. (1998). Ear Biometrics. Biometrics: Personal Identification in a Networked Society, p. 273–286.

(3). Fazilov Sh.Kh., Mirzaev N.M., Djumaev T.S. Formation of a set of representative features of images of a face and ears in problems of personality identification. Proceedings. Russian Scientific and Technical Society of Radio Engineering, Electronics and Communications named after A.S.Popova//12th International Conference and Exhibition. Reports. Series: Digital Signal Processing and Its Application Issue: XII-2, p. 62–65. DSPA-2010. Moscow, Russia.

(4). Fazilov S.X., Mahkamov A., Jumayev T.S. (2018). Algorithm for extraction of identification features in ear recognition. In Informatics: problems, methodology, technologies, p. 3–7.

Musaxanova Gulnora Mavlyanovna (TDIU "Iqtisodiyot nazariyasi" kafedrasi dotsenti (PhD); gulnaramusahanova02@gmail.com),

Sultonmurotova Shaxrizoda Muzaffar qizi (TDIU tayanch doktoranti; shakhrizoda2223@gmail.com)

BO'LAJAK RAHBARLARDA IQTISODIY KOMMUNIKATIV KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHNING INTEGRATIV MODELI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bo'lajak rahbarlarning iqtisodiy kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish, kommunikativlik kompetensiyasining rahbar kasbiy faoliyatidagi o'rni, malakali boshqaruvchi bo'lishda ingliz tili kommunikatsiyasining afzalliklari va tahlil qilingan ilmiy manbalarga asoslanib iqtisodiy kommunikativ ko'nikmalarning integrativ modeli taklif etiladi.*

Kalit so'zlar: *kompetensiya, kommunikativ, iqtisodiy, boshqaruv, integratsiya, model,rahbarlik, ingliz tili, komponent.*

Мусаханова Гулнора Мавляновна (доцент кафедры «Экономическая теория» ТГЭУ, PhD; gulnaramusahanova02@gmail.com),

Султанмуротова Шахризода Музаффар кизи (докторант ТГЭУ; shakhrizoda2223@gmail.com)

ИНТЕГРАТИВНАЯ МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИЧЕСКИХ КОММУНИКАТИВНЫХ НАВЫКОВ У БУДУЩИХ РУКОВОДИТЕЛЕЙ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются вопросы развития экономико-коммуникативных навыков у будущих руководителей, роль коммуникативной компетентности в профессиональной деятельности руководителя, а также преимущества владения английским языком в процессе становления квалифицированного менеджера. На основе анализа научных источников предлагается интегративная модель экономико-коммуникативных навыков.*

Ключевые слова: *компетенция, коммуникативный, экономический, управление, интеграция, модель, руководство, английский язык, компонент.*

Musakhanova Gulnora Mavlyanovna (Associate professor of the department of Economic theory, TSUE, PhD; gulnaramusahanova02@gmail.com),

Sultonmurotova Shakhrizoda (Doctoral student, TSUE; shakhrizoda2223@gmail.com)

AN INTEGRATIVE MODEL FOR DEVELOPING ECONOMIC COMMUNICATIVE SKILLS IN FUTURE LEADERS

Annotation. *This article examines the development of economic communicative skills in future leaders, the role of communicative competence in a leader's professional activity, and the advantages of English-language communication in becoming an effective manager. Based on the analysis of scientific sources, an integrative model of economic communicative skills is proposed.*

Keywords: *competence, communicative, economic, management, integration, model, leadership, English language, component.*